

YANGI O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIKNING NAMOYON BO'LISH SOHALARI**Nurmatova Iroda Akramdjanovna**

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi, f.f.b.f.d (Phd).

Sharipova Kamola Usmonjonovna

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi.

+99891-670-11-19 ksharipova582@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.15661702>

Mamlakatimiz miqyosida kechayotgan sotsial-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lida bardavom ildamlab bormoqda. Mamlakatimiz hayotidagi fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi olib borilayotgan sa'y-harakatlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jarayonlari jamiyatimizda gender tengligini ta'minlash masalalari bilan hamohang kechmoqda. Xotin-qizlarning oilada, jamiyatda, qolaversa, davlat boshqaruvidagi faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotgani natijasida ijtimoiy munosabatlarda ham, qonunchilikda ham katta o'zgarishlar ro'y bermoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda inson huquqlarini ta'minlash borasida salmoqli yutuqlarga erishildi. Inson huquqlarini ta'minlash borasida olib borilayotgan siyosat, eng avvallo yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 19 va 54-moddalarida o'z ifodasini topdi¹, barcha kodekslarda va qonunlarda jinslar tengligiga va uni ta'minlashga alohida urg'u berildi. Jumladan, Prezidentning xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash, xususan, gender tengligi va ayollarni zo'ravonlik va zulmdan himoya qilish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqomini kuchaytirish to'g'risidagi farmon va qarorlari qabul qilinganligi halqaro hamjamiyat tomonidan yuqori baholandi.

Mazkur sohada qonunchilik choralariga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekistonda xotinqizlar huquqlarini ta'minlash va himoya qilishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish maqsadida 2019 yil sentyabr oyida "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi hamda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi². Ushbu qonun mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan yaxlit va asosiy qonun hujjati hisoblanadi. Ilk bor milliy qonunchiligimizda "gender" tushunchasiga ta'rif berilgan. Qonunda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, ushbu sohada davlat boshqaruvi mexanizmlari belgilandi.

Xususan, xotin-qizlarning gender kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida O'zbekiston Respublikasida Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiya tashkil etildi.

Vazirlik va idoralarda gender tenglik masalalari bo'yicha maslahat kengashi faoliyati yo'lga qo'yildi. Siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarida xotin-qizlar hamda erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan "2020-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi" loyihasi ishlab chiqildi³. Ularda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlashning asosiy prinsiplari sifatida qonuniylik, demokratizm, jinsi bo'yicha kamsitishga yo'l qo'yilmaslik, ochiqlik, shaffoflik belgilab berilgan.

¹ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. 01.05.2023. <https://lex.uz/docs/6445145>

² Ўзбекистон Республикасининг "Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида"ги ЎРҚ-561-сон 02.09.2019 қонуни

³ <https://yuz.uz/news/> Гендер тенгликка эришиш стратегияси миллий ва умуминсоний кадриятларга асосланади.

Jinslar o'rtasidagi farqlarning tashkil topishi ijtimoiylashtirish jarayoni bilan bog'liq ekan, bu individ tomonidan jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida faoliyat yuritish imkonini beruvchi bilim, me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonlarni vujudga keltiradi.

Ijtimoiylashtirishning asosiy institutlari sirasiga oila, maktab, tengdoshlar guruhi, atrofdagilar, jumladan qo'shnichilik munosabatlari, ota-ona, do'stlar va boshqalar kiradi.

Umuman olganda, tegishli madaniy-me'yoriy andozalarni o'zlashtirish, qabul qilish va ifodalash jarayoni sodir bo'ladigan muhitdir.

Ijtimoiylashuv jarayonlarini shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar borki, ular aynan sodir bo'layotgan jarayonlarni qay yo'sinda borishi va istiqboldagi rejalarini belgilab beradi.

Bular: mintaqa aholisiga xos xarakter-xususiyatlar bo'lib, tarixan shakllangan etnik qadriyatlar, an'analar hamda din omili ta'sirida vujudga keladi. Yer yuzidagi har bir mintaqada ushbu xususiyatlar mavjud bo'lib, ular bir-birini takrorlamaydi. Xususan, Yevropa qit'asi aholisining dunyoqarashi, mintaliteti sharq mamlakatlaridan tubdan farq qiladi. Bu kabi farqlar mintaqalar kesimida yanada xilma xillikni kasb etadi. Xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlarida sodir bo'lgan ijtimoiylashuv jarayonlari mintaqa aholisi xususiyatlari, tarixiy jarayonlarni qay tarzda sodir bo'lganligini o'zida aks etib turadi. Mintaqaga xos omillar sirasiga: an'anaviylik, qadriyatlarga sodiqlik, sharqona mintalitet, oila, nikoh, oilaviy munosabatlarni boshqaruvda ustunlik qiluvchi erkakning roli, unga jamiyatdagi asosiy qatlam sifatida qarash kabi xususiyatlar kiradi. Ushbu munosabatlarni yanada sayqallanib, hozirgi qiyofasi shakllangunga qadar sodir bo'lgan jarayonlar, bosqinlar, mustamlakachilik tuzimini ta'siri mavjud. Sovet ittifoqi parchalangach, ungacha shakllanib bo'lgan ijtimoiy tuzum, hayot tarzida katta burilish sodir bo'ldi. Jamiyat ijtimoiy hayotida bir qancha muammolar vujudga keldi.

Xotin-qizlar masalasi hamda ularning jamiyatda tutgan o'rni bir qancha munozaralarga sabab bo'ldi. Xususan, muammolar quydagi sohalarida yaqqol namoyon bo'ldi:

- Siyosiy huquqlar va ulardan foydalanish imkoniyatlari;
- Alohida shaxs sifatida va oila a'zosi sifatidagi ayollarning yuridik huquqlari;
- Xotin-qizlarning ta'lim olish va o'qitishning turli shakllaridan, jumladan kasbhunar ta'limidan foydalanishlari;
- Mehnat faoliyatlari.

Mintaqa xalqlari xususan, O'zbekiston hukumatiga ham tegishli ushbu masalalar davlat siyosatining keyingi yo'nalishini belgilashda asosiy omil bo'ldi. Xususan, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng Respublikada qisqa davr ichida juda ko'p sifat o'zgarishlari sodir bo'ldiki, bular iqtisodda, ijtimoiy jarayonlarda va ayniqsa, xotin-qizlarning jamiyat va oiladagi mavqeyida o'z ifodasini topdi. O'zbekistondagi yangi siyosiy tizimda shaxs va davlatning o'zaro munosabatlariga ustuvorlik berilib, ular bir-biri bilan huquq va majburiyatlar vositasida chambarchas bog'liq.

Ijtimoiy-siyosiy va huquqiy munosabatlarni mutanosiblashtirishning asosiy mexanizmi budemokratiya, O'zbekiston hududida istiqomat qilayotgan barcha aholining huquqlarini kafolatlariga qaratilgan⁴.

Mamlakatda inson huquqlari jamiyatni demokratlashtirish muammolari ilmiy zehn, xalqning tarixan tarkib topgan an'analari, urf-odatlarini, ma'naviy qadriyatlarini inobatga olgan holda hal etildi. Jamiyat fuqarolik-huquqiy davlat qurish yo'lidan borar ekan, birinchi navbatda inson manfaatlari, jamiyat va shaxs ehtiyojlariga xizmat qilish bosh masala bo'lib qolishiga

⁴ Latipova G.Sh. Yangi davrda O'zbekistonda xotin-qizlar rolining rivojlanish bosqichlari. «SCIENTIFIC PROGRESS». Scientific Journal. Volume: 1, ISSUE: 5. – B. 521-526.

e'tibor qaratildi. Xususan, 1999-yil 14-apreldagi 760-I-sonli "Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 2003 yil 29-avgust "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risidagi" Qonunning 22-moddasi, shuningdek, 1995-yil 2-mart PF-1084-sonli "O'zbekiston Respublikasining davlat va ijtimoiy qurilishida xotin-qizlar rolini oshirish choralari to'g'risida" Prezident Farmoni, 2010-yil 30-sentyabrdagi PF4245-sonli "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" hamda 2004- yil 25-may PF-3434-sonli "O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" farmonlarida xotin-qizlar huquqlarining ta'minlanishi, ularning jamiyat siyosiy va madaniy qatlamidagi ishtiroki, ayollar huquqlari kamsitilishiga qarshi ko'riladigan chora-tadbirlar mustaqilligimizning ilk yillaridanoq o'z samarasini ko'rsatdi. Bu islohotlar so'nggi yillarda O'zbekistonda onalik va bolalikni muhofaza qilish, ayollarning jamiyatdagi mavqeini oshirish, oilani mustahkamlash borasida bir qator muhim qarorlar: 2018 yil 2-fevral PF-5325-son "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2004- yil 25-may PF3434-sonli "O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmon va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligi bilan diqqatga sazovordir.

Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirokini ta'minlash, xotin qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi, sohaga oid 25 ta qonunchilik hujjatlari qabul qilindi. Xususan, 2019 yillari qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi va "Xotin qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va nufuzini mustahkamlashga doir muhim qadam sifatida jamoatchilik tomonidan qizg'in ma'qullandi.

Ularda "gender" tushunchasiga ilk bor tarif berish bilan birga xotin qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish borasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilab berildi⁵.

Bugungi kunda mamlakatimizda bu borada tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Masalan, 2030 yilga qadar mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish Strategiyasining qabul qilinishi bu boradagi muhim bosqichlardan biri bo'ldi⁶. Mazkur tarixiy hujjatda gender tenglikni ta'minlashning asosiy tamoyillari qatorida qonuniylik, demokratiya, ochiqlik va oshkoralik prinsiplari belgilangan. 2030 yilgacha gender tenglikka erishish strategiyasi 9 ta maqsadni qamrab oladi. Bular:

- ijtimoiy-siyosiy hayotda erkak va ayollarning ishtirok etishida teng imkoniyatlar va huquqlarni yaratish;

- ayol va erkaklarning iqtisodiyot, bandlik va mehnat migrantlari huquqlarini himoya qilishda genlar tengligini ta'minlash;

⁵ "Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида"ги (ЎРҚ-562-сон) ва "Хотин қизларни тазйик ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида"ги (ЎРҚ-561-сон) Ўзбекистон Республикасининг Қонунлари. 02.09. 2019 й.

⁶ "2030 йилга қадар Ўзбекистон Республикасида гендер тенгликка эришиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг қарори, 28.05.2021 й., СҚ-297-IV-сон.

- bugungi hayot davomida barcha uchun adolatli va sifatli ta'limni ta'minlash; - barcha xotin-qizlar uchun gender tengligini ta'minlash, zo'ravonlikdan himoyalash, odam savosiga chek qo'yish;

- barcha erkak va ayollar uchun ijtimoiy himoya, sog'lom turmush tarzini ta'minlash;
- milliy gender statistikasini rivojlantirish;
- rejalashtirish va byudjetlashtirishda gender masalasini inobatga olish;
- OAVda gender muammolarining keng yoritilishini ta'minlash;
- barcha uchun xavfsiz ekologik muhitni ta'minlash masalalariga xotin-qizlarni jalb qilish⁷.

Gender siyosatining dolzarb masalalari sirasiga quyidagilar kiradi:

jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan munosabatlarida xotin-qizlarning erkaklar bilan teng ishtirok etishlarini qo'llab-quvvatlash, qaror qabul qilishda ularning yetakchilik qilishlari uchun teng imkoniyatlarni yaratish;

saylov huquqlarini amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash;

siyosiy partiyalarning saylov jarayonlariga xotin-qizlar va erkaklarni teng asosda jalb qilish va xotin-qizlarni tayinlanadigan rahbarlik lavozimlariga tavsiya qilishga oid faoliyatini rag'batlantirish;

siyosiy lider ayollarni tayyorlash tizimini shakllantirish;

davlat xizmati sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash;

davlat organlarining rahbarlik lavozimlariga tanlovlar asosida tayinlash mexanizmlarini joriy qilish orqali xotin-qizlarning rahbarlik lavozimlaridagi ulushini bosqichma-bosqich oshirib borish, amaldagi 27% ni 50% gacha ko'tarish;

jamiyat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal qilishda va dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan qarorlarni qabul qilish hamda ularni amalga oshirishda xotin-qizlarning ishtirokini kuchaytirish;

ta'lim, ilm-fan hamda sog'liqni saqlash sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlashda uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, xotin-qizlar va erkaklarni butun umr davomida o'qishga bo'lgan imkoniyatlarini rag'batlantirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni oliy ta'lim bilan qamrab olinishini kengaytirish;

ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash;

davlat organlari va tashkilotlarida xotin-qizlarning iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan tarmoq gender strategiyalari va harakatlar dasturlari ishlab chiqilishini qo'llab-quvvatlash;

mamlakatda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, xotin-qizlarning kredit olishga bo'lgan imkoniyatlarini kengaytirish;

tazyiq va zo'ravonlikning oldini olishda;

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash;

oilaviy munosabatlar hamda bolalar tarbiyasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash;

⁷ Журабоев Н.Ю., Хасанов М.Н. Янги Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий соҳа ривож: ислохот ва истикбол. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (6), 2022. – Б. 1274-1283.

oilani mustahkamlash, oilaviy munosabatlarda barcha oila a'zolarining mas'ulligini oshirish, biror-bir shaxsning oila masalalariga o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha amaldagi mexanizmlarni takomillashtirish;

erta nikoh, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh, erta tug'ruq, oilaviy ajrimlarning yuzaga kelish sabablari hamda shart-sharoitlarini tahlil qilish, bu borada ilmiy, amaliy hamda fundamental tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash;

gender jihatlarni hisobga olgan holda rejalashtirish va byudjetlashtirish;

ochiq va shaffof byudjet siyosatini amalga oshirish orqali xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi tengsizlikni kamaytirish, xotin-qizlar va erkaklarga manzilli davlat xizmatlari ko'rsatish, ularning sifati va samaradorligini oshirish;

xotin-qizlar va erkaklarga mo'ljallangan resurslar hamda xizmatlarni taqsimlash bo'yicha oldindan aniqlangan maqsadlarga ko'ra davlat mablag'laridan samaraliroq foydalanishni rag'batlantirish⁸.

Xotin-qizlarning davlat va jamiyat qurilishidagi ishtirokini kengaytirish, ijtimoiy-iqtisodiy, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa sohalaridagi o'rnini yanada yuqori darajaga ko'tarish muhim vazifalardan biri bo'lib turibdi. Buning uchun xotin-qizlar va erkaklar teng huquqligini ta'minlashga doir dolzarb masalalarga oid tegishlar qarorlar qabul qilish zarur ko'rinadi. Shu nuqtai nazardan, gender tenglikka erishish Strategiyasiga asosan, uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, gender tenglikka erishish bir qator dasturlar yo'nalishlarida amalga oshiriladi. Davlat xizmatida, ijtimoiy-iqtisodiy, oilaviy, saylov huquqlarini amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash, shular jumlasidandir. Shuningdek, Strategiyada gender tenglikni ta'minlash tadbirlarini hisobga olgan holda, davlat dasturlarini byudjetlashtirish va moliyalashtirish ham ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, yuqori va qo'yi tizimdagi davlat organlaridagi rahbarlik lavozimlariga xotin-qizlarni tayinlash amaliyoti kengaytirib boriladi.

Gender statistikasi yuritilishini takomillashtirishda respublika va hududlar kesimida genderni oid vaziyatni tahlil qilish hamda uning monitoringini yuritish maqsadida xotin-qizlar va erkaklarning nojadvaliy mehnat bozori sektoridagi, shuningdek hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ishtiroki, ularning davlat tomonidan kafolatlangan imkoniyatlardan foydalanish holati yuzasidan statistik ma'lumotlarni tizimli yuritishda qonunda ko'zda tutilgan vakolatli mansabdor shaxs vazifalarini bajarilishini inobatga olish zarur.

⁸ Саидова Л.А. Ўзбекистонда гендер тенгликни таъминлашнинг долзарб масалалари. // Оилавий-ҳуқуқий муносабатларда гендер тенглиги: конференция материаллари тўплами. – Тошкент: «Mahalla va Oila nashriyoti», 2021. – Б. 13-14. (- 212 б.)